

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA AXLOQIY TARBIYA
BERISHDA MILLIY AN'ANA VA QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH

Xodiyeva Nilufar Sherzod qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti

Shahrisabz, O'zbekiston

E-mail: nilufarxod1yeva@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishda milliy urf odatlar va an'analarning o'рни, shuningdek ularning ahamiyati bilan bog'liq dolzarb muammolar va tizimdagi kamchiliklarni yaxshilashga qaratilgan metodlarning mazmun-mohiyati o'rganiladi. Xususan, xalq og'zaki ijodi, milliy urf-odatlar va o'yinlar orqali bolalarda ijtimoiy faollik, vatanparvarlik, hurmat, mehr-oqibat kabi fazilatlarni rivojlantirish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. axloqiy tarbiya, milliy qadriyatlar, maktabgacha ta'lim, ma'naviyat, tarbiya, xalq pedagogikasi.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль национальных обычаев и традиций в формировании духовно-нравственного воспитания детей дошкольного возраста, а также актуальные проблемы, связанные с их значимостью, и сущность методов, направленных на устранение недостатков в системе. В частности, анализируются вопросы развития у детей таких качеств, как социальная активность, патриотизм, уважение и доброта, посредством народного устного искусства, национальных обычаев и игр.

Ключевые слова: нравственное воспитание, национальные ценности, дошкольное образование, духовность, воспитание, народная педагогика.

Abstract. This article examines the role of national customs and traditions in the formation of spiritual and moral education of preschool children, as well as the current problems associated with their importance and the essence of methods aimed at improving shortcomings in the system. In particular, the issues of developing such

qualities as social activity, patriotism, respect, and kindness in children through folk oral art, national customs, and games are analyzed.

Keywords. moral education, national values, preschool education, spirituality, upbringing, folk pedagogy.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan e'tiboran xalqimizning milliy an'ana va qadriyatlarini, urf-odatlarini e'zozlashga, boy madaniy merosga asoslangan milliy ma'naviyatning yuksalishiga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Ayni vaqtda ta'lim mazmuniga ham milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, milliy g'oyalarni singdirish, yosh avlodni insonparvarlik va yuksak ma'naviyat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongida mustaqillik, milliy o'zlikni anglash g'oyalarni yanada chuqur singdirish, "ommaviy madaniyat" ko'rinishidagi yot g'oyalarga qarshi immunitetni mustahkamlash hozirgi kundagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu vazifalar orasida bolalarni globallashtirish davrining eng muhim muammolaridan biri—xalq qadriyatlari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarga axloqiy tarbiyani shakllantiruvchi bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Barkamol yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish hamda ularni ona zaminga bo'lgan muhabbatni uyg'otish, Vatanni sevishtirishga, ardoqlashga, moddiy va ma'naviy boyliklarini asrab-avaylashga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Modomiki, kelajagimiz yoshlar qo'lida ekan, bolalarni maktabgacha yoshliklaridanoq ma'naviy dunyosini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatlarini tarbiyalashga hamda uning ongida milliy an'ana va qadriyatlarni shakllantirishga, dunyoqarashini o'stirishga, ijobiy fazilatlarni taraqqiy toptirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, maktabgacha yosh davri shaxsning axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy asoslari shakllanadigan muhim bosqich hisoblanadi. Shu bois bolalarga dastlabki axloqiy tushunchalarni singdirishda milliy an'ana va qadriyatlar asosiy vosita sifatida xizmat qiladi.

O'zbek xalqining boy ma'naviy merosi – urf-odatlar, marosimlar, xalq og'zaki ijodi, milliy o'yinlar va qadriyatlar bolalarni ezgulik, halollik, mehnatsevarlik, kattaga hurmat, kichikka izzat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Axloqiy tarbiya haqida so'z yuritadigan bo'lsak birinchi o'rinda axloq so'ziga to'xtalib o'tishimiz joizdir. Axloq (lotincha "myeros", ya'ni moral, mantiq so'zidan kelib chiqib, xulq-atvor ma'nosini bildiradi) ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soladigan, hech qaysi yerda qat'iy yo'zib qo'yilmagan qonun-qoidalar majmuasidir. Axloq ijtimoiy hodisa sifatida xalqning ma'naviy-ruhiy hayotida o'ziga xos orin tutadi. Axloq muayyan

jamiyat tomonidan tan olingan hamda amal qilinishi darkor bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig'indisidir. Axloq - kishining ichki dunyosi, e'tiqodi, fazilatlari sifatida mavjud bo'lsa, odob-shaxsning ko'zga tashlanadigan mulo'zamati, xulq-atvori, muomala va munosabatlarida namoyon bo'ladi. Axloq kishilarning o'zaro birlariga, oilaga, jamiyatga, atrof-muhitga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan xatti-harakatlari, xulq-atvorlari, odoblari majmui. U shaxsning xatti-harakatlarida, turmush tarzida, yurish-turishida, hayot kechirishining qoidalari va tamoyillarida, ijtimoiy munosabatlarida aks etadi. Axloqiy tarbiya — bu bolalarda jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me'yorlarini, insoniy fazilatlarni shakllantirish jarayonidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda quyidagi sifatlar rivojlantiriladi:

mehr-oqibat va hamdardlik;

halollik va adolat;

intizom va mas'uliyat;

kattalarga hurmat, tengdoshlarga do'stona munosabat;

mehnatsevarlik va tartiblilik.

Ushbu sifatlarning shakllanishida tarbiyachi va oila muhitining o'rni muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashning asosiy vazifalaridan biri bolalarning muayyan me'yorlar mavjudligi haqida bilishlarini emas, balki ularni kuzatib borishlarini ta'minlash hisoblanadi. Albatta, bu majburlashning eng oson yo'li. Lekin biz boshqacha harakat qilishimiz mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashning turli usullari mukofotlar va rag'batlantirishga pasayadi. Men halol edim - mukofotni kutmoqdaman, aldadim - jazoga tayyor bo'lish. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun, kattalar va ayniqsa, ota-onaning roziligi katta ahamiyatga ega. Bola ota-onasi bilan yaxshi munosabatlarni mustahkamlash va saqlab qolishga intiladi. Shuning uchun, asosiy ijtimoiy motivlar ijtimoiy tashqi nazoratga yo'naltirilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda o'yinlar orqali yaxshi natijalarga erishish mumkin, ular xushmuomala tarzda axloqiy me'yorlarga rioya qilishning muhimligi haqida xabardor bo'lishadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning xususiyatlari, axloqiy me'yorlarga rioya qilmaslik sharti bilan jazo qo'llashga imkon yaratmaydi. Kuchli so'zlar, jismoniy tazyiq - bolaning ruhiga tuzatib bo'lmaydigan jarohatlar yetkazishga qodir usullardir. Jazolarning shakli va dozasi doimo individualdir va ularni ishlatish qobiliyati maxsus

mahoratdir. Eng asosiysi, jazo bolani ota-onaga bog'laydigan ishonchning ma'naviy mavzulariga taalluqli emas. Jazo faqat tashqi nazoratdan iborat. Bolaning voyaga yetishi bilan ota-onaning nazorati zaiflashadi va oxir-oqibat yo'q bo'lib ketadi, shuning uchun siz "tashqi nazoratchi" ga umid qila olmaysiz. Bola, birinchi navbatda, ota-onasiga kerakligini tushunishi kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy tarbiyasida mavjud vositalar motivatsiya, mukofot va jazo muayyan farzand uchun muqobil variantni tanlash imkonini beradi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni axloqiy tarbiyalash mazmuni bolaning ma'naviy dunyosini, uning ongini, axloqiy hissiyotlarini, shaxsiy sifatlari va xulqini tarbiyalash hamda rivojlantirishni taqo'zo etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- 1) bolalarda axloqiy his-tuyg'ular va xatti-harakatlarni tarbiyalash;
- 2) xulq madaniyati va ijobiy his-tuyg'ularni tarbiyalash;
- 3) axloqiy xulq-atvor ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Milliy-axloqiy qadriyatlar xalqimizning milliy urf-odatlarini, an'analari, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashga va ular ongining shakllanishida, milliy merosimizni avaylab-asrashga, urf-odatlar, qadriyatlarga jalb etish, qiziqtirishda muhim omil ekanligini pedagog-olimlarimiz o'zlarining ishlarida qayd etib o'tdilar. Masalan, U.Toshtemirov, X.Sapoxonov, R.Xolmatov, L.Zohidovlar qadriyatlarni quyidagicha izohlaydilar: «Qadriyatni keng, falsafiy ma'noda tushunish mumkin. Falsafiy ma'noda insonning kundalik turmushiga foydali, uning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan, insonga rohat-farog'at bag'ishlovchi narsa va hodisalar, ularning xususiyatlaridir. Qadriyat obektiv borliqning shaxs va jamiyat taraqqiyoti uchun foydali xossalardir. Qadriyatning axloqiy ma'nosi shaxs va jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy guruhlar, (oilalar, millat, jamoat), jamiyatning axloqiy fazilatlarini, axloq-odob qoidalari, tushunchalari, qarashlari va ilg'or urf-odatlaridir».¹

Milliy an'ana va qadriyatlar – bu xalqning asrlar davomida shakllangan ma'naviy boyligi bo'lib, unda axloqiy normalar mujassam. Quyidagi vositalar bolalar tarbiyasida samarali hisoblanadi:

Xalq ertaklari va maqollar – yaxshilik va yomonlik tushunchasini anglatadi;

¹ Toshtemirov U., Sapoxonov X., Xolmatov R., Zoxidov L., «Axloqiy qadriyatlar». Muqimiy nomidagi Qo'qon Davlat pedagogika instituti. Fargona nashri. 1993, 12 – b.

Milliy bayramlar (Navro‘z, Mustaqillik kuni) – birlik, do‘stlik, tabiatga mehr tuyg‘usini rivojlantiradi;

Milliy o‘yinlar – hamkorlik, adolat, jamoada ishlashni o‘rgatadi;

Marosimlar va urf-odatlar – kattalarga hurmat, odob-axloq qoidalarini mustahkamlaydi.

Bolalar ushbu qadriyatlarni bevosita amaliy faoliyat jarayonida o‘zlashtiradi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida quyidagi metodlardan foydalanish tavsiya etiladi:

- olli o‘yinlar orqali urf-odatlarni sahnalashtirish;
- ertak terapiyasi va suhbatlar;
- milliy kuy-qo‘shiqlarni tinglash va ijro etish;
- hunarmandchilik elementlarini o‘rganish;
- bayram tadbirlarini tashkil etish.

Bu metodlar bolalarning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi va ijtimoiy moslashuvini kuchaytiradi.

Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashni birinchi masala darajasiga olib chiqish, maqsadga muvofiqdir. Chunki jamiyat ravnaqi uchun faqat nazariy bilimlarga ega bo‘lgan, mexanik mashina kabi vazifalarini bajaruvchi kasb egalari emas, balki, eng avvalo chuqur his-tuyg‘uli, yuksak ma‘naviy-axloqiy fazilatlarga ega shaxslar darkor. Zero, o‘z kelayotgan yosh avlod o‘z milliy urf-odat, qadriyatlarini, axloq-odob madaniyatini o‘zlashtirishi va ularga hurmat bilan qarashi lozim. Shundagina u o‘z yurtining chinakam vakili degan buyuk unvonga sazovor bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy tarbiyani shakllantirishda milliy an‘ana va qadriyatlar muhim pedagogik resurs hisoblanadi. Ular bolalarda ma‘naviy barqarorlik, milliy o‘zlikni anglash va ijtimoiy faollikni rivojlantiradi. Tarbiyachilar ta‘lim jarayonida milliy qadriyatlardan keng ko‘lamda foydalansa, tarbiya samaradorligi yanada oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. Ma‘naviy yuksalish yo‘lida. Toshkent: «O‘zbekiston», 1998.

2. Karimov I.A. Yuksak manaviyat — yengilmas kuch. —T.: “Manaviyat”, 2008.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. “O‘zbekiston” 2016.
4. “Takomillashtirilgan ilk qadam” maktabgacha talim muassasasining Davlat o'quv dasturi. T.: 2022.
5. O'zbekisto Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi»gi 2019-yildagi 16-dekabrda 595-son qonuni.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risidagi»gi 2020-yil 22-dekabrda 802-son qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. //«Til va adabiyot talimi», 1998,
8. Sh.A.Sodiqova. “Maktabgacha pedagogika”. T.: “Tafakkur sarchashmalari”, 2013
9. O.U.Xasanboeva. “Maktabgacha talim pedagogikasi”. T.: «Ilm ziyoyi» 2006
10. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. Ozbek xalq ogzaki poetik ijodi. Toshkent: «Oqituvchi» 1990, 304 bet.
11. Toshtemirov U., Sapoxonov X., Xolmatov R., Zoxidov L., «Axloqiy qadriyatlar». Muqimiy nomidagi Qo‘qon Davlat pedagogika instituti. Farg‘ona nashri.1993, 12-b.
12. Musurmonova O., Baubekova G. Ozbek xalq pedagogikasi. Toshkent: «Xalq merosi», 2000. 320 bet.
13. Ijtimoiy axborot talim portali: www.ziyounet.uz.
14. Maktabgacha talim» jurnali: www.jlmt.uz.